



Guvohnoma raqami: №362583
ISSN: 3060-4699

MOLLIYA, PUL VA KREDIT

№5

Xalqaro va mahalliy darajadagi ilmiy-
ommabop elektron jurnal

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OPEN ACCESS

doi Digital
Object
Identifier

**Academic
Resource
Index**
ResearchBib

Google Scholar **BASE**

OpenAIRE **zenodo**



<https://mpkjournal.com>



@mpk_journal





Guvohnoma raqami: №362583
ISSN: 3060-4699

Tahririyat a'zolari
Editorial board:



Bosh muharrir:


Ataniyazov Jasurbek Xamidovich, Iqtisodiyot fanlari doktori, TDIU professori



Kotib:

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,
TDIU katta o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining (08.05.2025-y., № 370/5) sonli qarori bilan iqtisodiyot fanlari bo'yicha PhD va DSc ilmiy darajasiga talabgorlarining dissertatsiya ishlari yuzasidan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



Jumayev Nodir Xosiyatovich -
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Fan, ta'lim, madaniyat,
sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor



William B. Eimicke - Kolumbiya
universiteti professori, AQSH



Mohammed Obaidullah - Islom
biznesi va moliya tarmog'i guruhi raisi,
PhD, Indoneziya



Kireev Aleksey Pavlovich - XVF yetakchi
iqtisodchisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor, Rossiya



Satoshi Sugahara - Kwansai Gakuin
universiteti professori, Yaponiya



Nitin Goje - PhD., Toshkent Webster
Universiteti professori



Bog'lanish uchun:
Contacts:



<https://mpkjournal.com>



+998935820303



@mpk_journal



Ilmiy ekspert:
Madaminov In'omjon Ozodovich -
PhD., Urganch davlat universiteti
dotsenti



Bosh ilmiy konsultant:
Hoshimov Jahongir Ravshanbek
o'g'li - PhD., TDIU dotsenti



Bosh muharrir o'rinbosari:
Alimardonov Elshod Dilshodovich
- PhD., TDIU professori



Jurnal veb-sayti menejeri:
Yo'ldoshev Salmonjon Iqboljon
o'g'li - Andijon davlat texnika
instituti o'qituvchisi



Muharrir:
Omonov Sardor O'lmasovich
- PhD., TDIU dotsenti



Muharrir:
Narimonov Sayfullaxon
Sunatillo o'g'li - PhD., TDIU



Ingliz tili bo'yicha muharrir:
Shirinova Shoxsanam Sobir
qizi - PhD., TDIU dotsenti



Rus tili bo'yicha muharrir:
Abdvosidova Gulandom
Abdurashid qizi - PhD., TDIU

Tahririyat kengashi a'zolari:

Tokunaga Masahiro - PhD., Yaponiya Kansai universiteti professori

Debasis Das - PhD., Toshkent Webster Universiteti professori

Bobakulov To'liqin Ibodullayevich - I.f.d., O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi professori

Ortiqov Uyg'un Davlatovich - DSc., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Komolov Odiljon Sayfiddinovich - I.f.n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Meyliyev Obid Raxmatullayevich - i.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Omonov Akrom Abdinazarovich - i.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori



<https://mpkjournal.com>

Guvohnoma raqami: №362583

ISSN: 3060-4699

Abduraxmonov Ilyos Xurshidovich - I.f.d., Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti professori
Mamatov Bahadir Safaraliyevich - I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Raxmonov Dilshodjon Alijonovich - I.f.d., Toshkent xalqaro universiteti professori
Zoyirov Laziz Subxonovich - I.f.n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Tursunov Jahongir Po‘latovich - I.f.d., O‘z. Res. Bank-moliya akademiyasi professori
Saidov Rasulbek Baltabayevich - I.f.n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Meliyev Isroil Ismoilovich - I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Xamdamov Shavkat Komilovich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Xamdamov Omonullo Ne‘matullayevich - DSc., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Sherov Alisher Bakberganovich - DSc., Ma‘mun universiteti professori
Shomurodov Ravshan Tursunkulovich - I.f.n., «MEI, Milliy tadqiqot universiteti»
Federal davlat budjeti oliy ta‘lim muassasi Toshkent filiali dotsenti
Saidov Doniyor Abdullayevich - I.f.n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Shadiyeva Dildora Xamidovna - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti v.b.
Shomirov Azizbek Abdurashidovich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Kenjayev Mehriddin G‘iyozovich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Rahimov Akmal Matyaqubovich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Yuldasheva Umida Asanaliyevna - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Ulichkina Ludmila Ivanovna - I.f.n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Chinqulov Qahramon Ravshanovich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Abduraimova Nigora Radjabovna - PhD., Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti dotsenti
Ibodullayev Abror Axrorovich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Boyev Bekzodjon Jo‘raqul o‘g‘li - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Abullayev Anvar Farxodovich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Ibodullayev Shoxboz To‘lqin o‘g‘li - PhD., O‘zmilliybank AJ bosh mutaxassisi
Ibrohimov Yorqinjon To‘lqinovich - PhD., “O‘zbekiston Respublika valyuta birjasi” AJ bo‘lim boshlig‘i
Mustafayev Zafarjon Buribayevich - I.f.n., “O‘zbeklizing” AJ bosh direktori
Kenjayev Ilhom G‘iyozovich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Suleymanov Ilnur Radikovich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Xasanov Farrux Ravshanovich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Mirzayev Mirza Abdullayevich - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
Ibodullayeva Ma‘rifat To‘lqin qizi - PhD., O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsenti v.b.
Rayimnazarov Saloxiddin Davirbek o‘g‘li - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Axmadaliyeva Nixolaxon Fozil qizi - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi
Shovkatov Nodirjon Ne‘matjon o‘g‘li - PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi
Abdumurotov Shohruh Shavkat o‘g‘li - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti v.b.
Aktamov Bobirjon Mardon o‘g‘li - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi
Butayev Javlonbek Inatillo o‘g‘li - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi
Sattorov Shohruh Maxmudjon o‘g‘li - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi
Yusufov Asfandiyor Eldor o‘g‘li - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi





**SUG‘URTADA ESG-STANDARTLARI VA «YASHIL MOLIYA»
KONSEPSIYALARI**

**ESG STANDARDS AND THE CONCEPT OF “GREEN FINANCE” IN
INSURANCE**

**¹Zoyirov Laziz
Subxonovich**

*¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, i.f.n., dots.*

**Annotatsiya
Annotation**

Uzb. - Mazkur maqolada sug‘urta sohasida ESG-standartlari va «yashil moliya» konsepsiyalari o‘rtasidagi uyg‘unlik va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilingan. ESG standartlari kompaniyalarning ichki boshqaruv tizimlari va ijtimoiy mas’uliyatini belgilasa, yashil moliya investitsiya strategiyalari orqali ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Ushbu yondashuvlar sug‘urta kompaniyalariga iqtisodiy samaradorlikni oshirish va bozorda barqaror va ishonchli institut sifatida shakllanishga yordam beradi.

Eng. - This article analyzes the integration of ESG standards and the concept of green finance in the insurance industry, highlighting their practical importance. ESG standards define companies’ internal management systems and social responsibility, while green finance ensures environmental sustainability through investment strategies. This approach assists insurance companies in improving economic efficiency and establishing themselves as sustainable and reliable market institutions.

**Kalit so‘zlar:
Keywords:**

❖ *ESG standartlari, yashil moliya, sug‘urta kompaniyalari, barqarorlik, ekologik mas’uliyat, ijtimoiy mas’uliyat, korporativ boshqaruv, investitsiya strategiyasi.*

❖ *ESG standards, green finance, insurance companies, sustainability, environmental responsibility, social responsibility, corporate governance, investment strategy.*

Kirish.

So‘nggi yillarda sug‘urta sektorida barqaror rivojlanishga qaratilgan yondashuvlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda ESG (Environmental, Social, Governance – Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) standartlari hamda “yashil moliya” konsepsiyalari muhim o‘rin tutmoqda. Ular sug‘urta kompaniyalarining faqat moliyaviy emas, balki ijtimoiy va ekologik mas’uliyatini ham belgilaydi.

Sug‘urta kompaniyalari ESG standartlarini o‘z siyosat va amaliyotiga joriy etish orqali:

ekologik xavflarni baholaydi va kamaytiradi (E);

ijtimoiy tenglik, mijoz huquqlari va mehnat munosabatlarini ta’minlaydi (S);

shaffof boshqaruv va xatarlarni samarali boshqarish mexanizmlarini rivojlantiradi (G).

Mazkur standartlar, ayniqsa, investitsiya portfelida yuqori ESG baholariga ega aktivlar va loyihalarga ustuvor ahamiyat berishni talab qiladi.

“Yashil moliya” – bu atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi moliyaviy faoliyat bo‘lib, unda quyidagi yo‘nalishlar markazda turadi:

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini moliyalashtirish;

Karbonat chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan loyihalar;

“yashil” obligatsiyalar chiqarish va investitsiya qilish.

Sugʻurta kompaniyalari “yashil moliya” ning faol ishtirokchilari sifatida chiqish orqali barqaror iqtisodiyotni qoʻllab-quvvatlaydi, investitsion xavflarni pasaytiradi va ESG tamoyillarini amaliyotda tatbiq etadi.

Sugʻurta sohasida ESG va “yashil moliya” oʻzaro bogʻliq mexanizmlardir. ESG kompaniya faoliyatining ichki tizimini belgilasa, “yashil moliya” – uning tashqi investitsion strategiyasini shakllantiradi. Bular orqali sugʻurta kompaniyalari nafaqat ekologik barqarorlikni taʼminlaydi, balki bozorda raqobatbardosh va ishonchli moliyaviy institut sifatida shakllanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

ESG konsepsiyasi uchta asosiy jihatni – ekologik, ijtimoiy va boshqaruv komponentlarini oʻz ichiga oladi va ularni birdek hisobga olish sugʻurta kompaniyalari uchun muhimdir. ESG risklarini samarali baholash uchun yagona va standartlashtirilgan metodologiyalarni joriy etish zarur boʻlib, bu kompaniyalar oʻrtasidagi integratsiyani osonlashtirish va tahlillar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. ESGni integratsiyalashda atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv jihatlarini alohida emas, balki birgalikda koʻrib chiqish muhim hisoblanadi [1].

Alshadadi, Deshmukh va Zaid (2021) sugʻurta kompaniyalarining barqarorligi va ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) amallarini tahlil qilgan adabiyotlarini koʻrib chiqishadi. Ularning fikriga koʻra, sugʻurta sohasida ESG standartlarini joriy etishda asosiy muammolardan biri malakali kadrlar yetishmasligi hisoblanadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun xodimlarning ESG sohasidagi bilimlari va koʻnikmalarini oshirish maqsadida tarkibiy treninglar, malaka oshirish

dasturlari hamda xalqaro tajriba almashinuvi zarurligi taʼkidlanadi. Shuningdek, mualliflar ESGning kompaniya faoliyatiga taʼsirini yaxshiroq tushunish va uni samarali joriy etish uchun korxonada maxsus siyosatlar va chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi muhimligini koʻrsatishadi. Ushbu tadqiqot sugʻurta sektorida ESG standartlarini samarali joriy etish va ustuvor vazifalarni aniqlash uchun qimmatli nazariy asoslar va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi [2].

Williams (2024) Yevropa va Britaniya sugʻurta bozorlarida ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) standartlari boʻyicha shaffoflik va hisobot berish jarayonlarini tahlil qilgan. Uning fikriga koʻra, ESG faoliyati toʻgʻrisidagi hisobotlarning ochiq va muntazam tayyorlanishi investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar oʻrtasida ishonchni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shaffof hisobotlar kompaniyaning barqarorlik strategiyasi, risk boshqaruvi, ekologik va ijtimoiy taʼsirlari haqida aniq maʼlumotlar berib, jamoatchilik va moliya bozorlarida korporativ masʼuliyatni kuchaytirishga yordam beradi. Bu esa sugʻurta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirishga va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni taʼminlashga xizmat qiladi. Maqola ESG hisobotlarini takomillashtirish va ularni biznes-amaliyotga integratsiya qilish orqali investitsiya muhitini yaxshilash zaruratini taʼkidlaydi [3].

Okonjo va Tang (2022) sugʻurta sohasida, ayniqsa “Property and Casualty” (P&C) turi boʻyicha sugʻurta kompaniyalari faoliyatiga ESG ballarining taʼsirini tadqiq qilgan. Ularning tahliliga koʻra, yuqori ESG reytinglari kompaniyalarning moliyaviy koʻrsatkichlarini yaxshilaydi, bu esa oʻz navbatida ularning bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi. ESG ballari yuqori boʻlgan sugʻurta kompaniyalari koʻproq ishonchga ega boʻlib, risklarni boshqarish jarayonlarini samarali amalga oshira oladi. Shuningdek, ushbu kompaniyalar ekologik va ijtimoiy masʼuliyatni yaxshiroq taʼminlab, korporativ boshqaruv standartlarini

mustahkamlash orqali barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Umuman olganda, ESG reytinglari sug'urta kompaniyalarining moliyaviy va operatsion samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [4].

Sug'urta sohasida ESG bilan bog'liq noaniqliklar va ularning kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi, ayniqsa bankrotlik xatarlari bilan bog'liq ta'sirini tadqiq qilishgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ESG standartlariga rioya qilmaslik yoki ESG bo'yicha nizolar kompaniyaning obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa uning qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun ESG bilan bog'liq muammolar bankrotlik xavfini oshirishi mumkin. ESG konsepsiyasini to'g'ri joriy etish va yuqori darajadagi mas'uliyatni ta'minlash sug'urta kompaniyalari uchun moliyaviy barqarorlikni saqlash va risklarni kamaytirishning muhim omillardan biridir. Shuningdek, ular ESGni nazorat qilish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish ham muhim hisoblanadi [5].

Kölbel J.F., Busch T., Jancso L., va Brashear Alejandro T. (2020) o'z tadqiqotlarida ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) ma'lumotlari bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratganlar. Ular ta'kidlashicha, bu ma'lumotlarning yetishmasligi va turli kompaniyalar va bozorlarda standartlashtirilmaganligi sug'urta kompaniyalari uchun jiddiy qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Bu esa kompaniyalarning ESG asosida to'g'ri va aniq qarorlar qabul qilishini qiyinlashtiradi, chunki ma'lumotlarning turlicha va nomuvofiq bo'lishi xavflarni to'g'ri baholashga to'siq bo'ladi. Shu sababli, olimlar yagona, bir xil va ochiq ESG ma'lumotlari bazasini yaratish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu baza ESG ko'rsatkichlarini solishtirishni osonlashtiradi, shaffoflikni oshiradi va sug'urta kompaniyalari hamda boshqa moliyaviy institutlar uchun aniq va ishonchli ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Qisqasi, ular ESG ma'lumotlarining bir

xil va standartlashtirilgan shakldagi bazasi ESG strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblashadi [6].

Eccles, Ioannou va Serafeim (2014) o'z tadqiqotlarida ESGga katta e'tibor qaratadigan kompaniyalar moliyaviy jihatdan uzoq muddatda yuqori natijalarga erishishini ko'rsatganlar. Ular ESG prinsiplarini joriy qilgan kompaniyalar nafaqat raqobatbardoshligini saqlab qoladi, balki bozordagi barqarorlik va ishonchni oshiradi. Bu sug'urta sohasi uchun ham muhimdir, chunki sug'urta kompaniyalari uzoq muddatli investitsiyalarga tayanadi va ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillarini hisobga olish moliyaviy xavflarni kamaytiradi [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil, sintez kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek investitsion faoliyat va ularni amalga oshirishning mexanizmlarini takomillashtirish muammolari va ularning yechimlari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sug'urta sohasida ESG standartlari va yashil moliya o'rtasidagi munosabatlar bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi mexanizmlar sifatida qaraladi. ESG ko'proq ichki korporativ siyosat, boshqaruv madaniyati va ijtimoiy-ekologik mas'uliyatga tegishli bo'lsa, yashil moliya esa kompaniyaning tashqi investitsion faoliyatida namoyon bo'ladi.

ESG ko'rsatkichlari sug'urta kompaniyalarining ichki jarayonlarini barqaror qilishga xizmat qiladi. Ular kompaniyaning iqlim xavflariga tayyorgarligi, xodimlar uchun ijtimoiy shart-sharoitlar yaratish, korrupsiyaga qarshi siyosat yuritish va faoliyatning shaffofligini ta'minlash kabi masalalarni qamrab oladi. Shu bois ESG – bu kompaniya

reputatsiyasi va ichki barqarorligining asosi sanaladi.

Yashil moliya orqali sugʻurta kompaniyalari oʻz aktivlarini faqat foyda keltiradigan emas, balki ekologik taʼsiri ijobiy boʻlgan loyihalarga yoʻnaltiradi. Bu – yashil obligatsiyalar, qayta tiklanuvchi energetika infratuzilmalari, energiya samaradorligi va karbonat chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan investitsiyalarga kirishni oʻz ichiga oladi. Bunday investitsiyalar nafaqat moliyaviy daromad keltiradi, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ham taʼminlaydi.

Sugʻurta kompaniyalari ESG va yashil moliyani birgalikda joriy etgan holda quyidagi ustunliklarga ega boʻladi:

Reputatsion kapitalni oshiradi: ESG koʻrsatkichlari yaxshi boʻlgan kompaniyalar jamoatchilik, mijozlar va davlat tuzilmalari koʻzida ishonchli tuzilma sifatida koʻriladi.

Investitsion xavflarni kamaytiradi: Yashil loyihalarni tanlash ESG risklarini inobatga olgan holda kapitalni oqilona taqsimlashga yordam beradi.

Zamonaviy talablarga javob beradi: Bugungi global tendensiya ESG faoliyati boʻlgan tashkilotlarga investitsiya kiritishni afzal koʻradi. Investorlar hamda xalqaro moliya institutlari ESG talablariga mos keladigan aktivlarni ustuvor deb biladi.

Barqaror daromad manbalarini yaratadi: Uzoq muddatli, ekologik jihatdan barqaror loyihalar moliyaviy jihatdan ham mustahkam va bardavom boʻladi.

Sugʻurta kompaniyalari ESG standartlari va yashil moliya tamoyillarini oʻz faoliyatiga tatbiq etar ekan, quyidagi ijobiy samaralarga erishadi:

Birinchidan, investitsion portfel barqarorligi oshadi. ESG talablariga javob beradigan “yashil” loyihalarga investitsiya kiritish xavf darajasi past boʻlgan, barqaror daromad keltiruvchi aktivlarga yoʻnalishni anglatadi. Sugʻurta kompaniyalari investitsion portfelini ekologik, ijtimoiy va boshqaruv nuqtai nazaridan tahlil qilib, xavfli va

nomuvofiq aktivlardan voz kechadi, bu esa uzoq muddatda daromaddorlikni oshiradi.

Ikkinchidan, iqlim xavflariga tayyorgarlikni kuchaytiradi. ESG standartlarini joriy etgan sugʻurta kompaniyalari iqlim oʻzgarishi, tabiiy ofatlar, ekologik xavflar kabi omillarni oldindan hisobga oladi. Bu xavflarni baholash va samarali boshqarish imkonini beradi, sugʻurta toʻlovlari bilan bogʻliq yirik moliyaviy yoʻqotishlarning oldini oladi.

Uchinchidan, mijozlar va investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Barqaror faoliyat yuritadigan, ESG siyosatiga ega sugʻurta kompaniyalari keng jamoatchilik, mijozlar va xalqaro investorlar koʻzida ishonchli va masʼuliyatli tuzilma sifatida namoyon boʻladi. Bunda ayniqsa yillik ESG hisobotlari, shaffof maʼlumotlar va ijtimoiy loyihalarda ishtirok ahamiyatlidir.

Toʻrtinchidan, xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoni yaratiladi. ESG va “yashil moliya” talablariga mos keluvchi kompaniyalar xalqaro moliyaviy institutlar (masalan, IFC, EBRD, UNPRI) va investorlar bilan hamkorlik qilish imkoniga ega boʻladi. Ular tomonidan chiqarilgan “yashil obligatsiyalar” va “barqaror sugʻurta mahsulotlari” global bozorlarda yuqori talabga ega.

Beshinchidan, kompaniyaning brend qiymatini oshiradi. Ijtimoiy va ekologik jihatdan masʼuliyatli faoliyat kompaniya imidjini kuchaytiradi. ESG qoidalariga amal qiluvchi sugʻurta tashkilotlari marketing va PR sohalarida ustunlikka ega boʻladi, bu esa yangi mijozlar jalb etish va bozor ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, korporativ boshqaruvni takomillashtiradi. G (Governance) – boshqaruv tamoyili, yaʼni kompaniyaning ichki nazorat tizimini mustahkamlash, shaffoflik va hisobdorlikni taʼminlash ESGning asosiy qismidir. Bu orqali ichki boshqaruv qarorlari samarali qabul qilinadi va korrupsiya xavflari kamayadi.

1-jadval

Sug'urta kompaniyalari faoliyatida ESG va yashil moliyaning muammolari va qiyinchiliklari

<i>Salbiy tomonlari</i>	<i>Tavsif</i>
Boshlang'ich sarmoya talab etilishi	<i>ESGga moslashish uchun ichki siyosat, texnologiyalar, xodimlarni tayyorlash kabi sohalarga katta sarmoya kerak.</i>
Mahsulot va xizmatlarni qayta shakllantirish	<i>Yashil moliyaga mos mahsulotlarni yaratish va mavjudlarini o'zgartirish vaqt va resurs talab etadi.</i>
Ma'lumotlar yetishmovchiligi	<i>ESG baholash uchun zarur ma'lumotlarni to'plash murakkab va qimmat bo'lib, hisobotlarning ishonchligiga ta'sir qiladi.</i>
Qonuniy va nazorat to'siqlar	<i>Mamlakatlarga qarab ESG talablari farqli bo'lib, ularni bajarishda muammolar paydo bo'lishi mumkin.</i>
Investitsiya qaytarimi va samaradorlikning noma'lumligi	<i>Barqaror loyihalarda daromad past va iqtisodiy samaradorlik haqida noaniqliklar mavjud.</i>
ESG baholashning subyektivligi	<i>Turli reyting agentliklarining baholash mezonlari farqli bo'lishi strategiya ishlab chiqishni qiyinlashtiradi.</i>

Izoh: jadval muallif tomonidan shakllanirilgan.

Sug'urta kompaniyalarida ESG standartlari va yashil moliyani joriy etish jarayonida uchraydigan asosiy muammolarni bartaraf etish uchun bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

Birinchidan, ESG standartlarining notekshirilishi va bir xil bo'lmashligi muammosini hal etish maqsadida xalqaro hamda mahalliy darajada standartlarni muvofiqlashtirish va yagona talablar hamda reyting tizimlarini joriy etish zarur. Bu ESGning aniq va barqaror qo'llanilishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ESG bo'yicha kadrlar malakasi va bilimlari yetishmasligi muammosini hal etish uchun xodimlar uchun maxsus treninglar, malaka oshirish kurslari va xalqaro tajriba almashinuvi dasturlari tashkil etilishi muhimdir. Shu bilan birga, ESG hisobotlarining shaffof va aniq bo'lmashligiga qarshi kurashish maqsadida hisobotlar standartlashtirilgan shaklda tayyorlanishi, tashqi audit va mustaqil tekshiruvlar joriy etilishi lozim. Yashil moliya instrumentlarining likvidligi past bo'lgan holatlarda esa raqamli texnologiyalar va bozor infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek investorlarni qiziqtiruvchi yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish orqali ushbu to'siqni yengish mumkin.

Oxirgi va eng muhim chora-tadbir sifatida, ESG risklarni baholash va boshqarishdagi muammolarni bartaraf etish uchun ilg'or analitika va katta ma'lumotlarni qayta ishlash usullari joriy qilinishi, shuningdek iqlim stress-testlari muntazam ravishda o'tkazilishi zarur. Bu choralar sug'urta kompaniyalarining ESG va yashil moliyani samarali joriy etish yo'lidagi asosiy to'siqlarni yengib o'tishiga yordam beradi va ularning barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi.

Xulosa va takliflar.

Sug'urta kompaniyalari uchun ESG standartlari va yashil moliya konsepsiyalarining uyg'unligi nafaqat korporativ mas'uliyatni kuchaytiradi, balki bozordagi raqobatbardoshlikni, moliyaviy barqarorlikni va investorlar ishonchini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan, ESG va yashil moliyani strategik ravishda integratsiya qilish – zamonaviy sug'urta sohasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari uchun ESG standartlari va yashil moliya – bu faqat ijtimoiy mas'uliyat emas, balki moliyaviy barqarorlik, xavfsiz investitsiya, bozordagi ishonch va raqobatbardoshlikning kafolatidir. Bugungi

global sharoitda ESGni inkor etgan kompaniyalar orqada qolishi, ESGni qabul qilganlar esa iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda yetakchi bo'lishi mumkin.

ESG va yashil moliyani joriy etish sug'urta kompaniyalari uchun ko'plab

imkoniyatlar yaratadi, lekin ularning yo'lida texnik, moliyaviy va nazorat to'siqlar ham bor. Shu sababli, har bir sug'urta kompaniyasi ushbu mexanizmlarni joriy qilishda o'z imkoniyatlari va bozor sharoitiga mos ravishda choralar ko'rishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khovrak A. (2020). *ESG Risk Assessment in Insurance Companies: Environmental, Social and Governance Dimensions*. *Journal of Sustainable Finance*, Vol. 8, No. 3, pp. 45-62.
2. Alshadadi M.A., Deshmukh S., Zaid K.M. (2021). *Sustainability and Practices of Insurance Companies: Literature Review*. *Studies in Economics and Business Relations*, Vol. 14, Issue 2, pp. 110-121.
3. Williams E. (2024). *Transparency and Reporting in ESG: Building Investor Confidence in European and UK Insurance Markets*. *European Journal of Corporate Governance*, Vol. 12, No. 1, pp. 75-90.
4. Okonjo C., Tang J. (2022). *Effects from ESG Scores on P&C Insurance Companies' Performance*. *Sustainability*, 14(12), 7539. DOI: 10.3390/su14127539.
5. Mahrani F., Ali R., Wu J. (2023). *ESG Controversies and Insolvency Risk: Evidence from the Insurance Industry*. *Journal of Sustainable Finance & Investment*. DOI: 10.1080/20430795.2023.2220560.
6. Kölbl J.F., Busch T., Jancso L., Brashear Alejandro T. (2020). *ESG Data Challenges: The Need for a Unified and Transparent Database in the Insurance Sector*. *Journal of Sustainable Finance*, Vol. 10, No. 4, pp. 112-130.
7. Eccles R.G., Ioannou I., Serafeim G. (2014). *The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance*. *Management Science*, Vol. 60, No. 11, pp. 2835-2857.



2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda yokida e'lon etilganda "Moliya, pul va kredit" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi. Shuningdek, ushbu jurnal saytiga kiritilgan ismlar va elektron pochta manzillari faqat ushbu jurnalning ko'rsatilgan maqsadlari uchun ishlatiladi va boshqa maqsadlarda yoki boshqa tomonlarga taqdim etilmaydi.



MPK (Moliya, pul va kredit) ilmiy-ommabop jurnali iqtisodiyot va moliya sohasida ilmiy izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar, olimlar, professor-o'qituvchilar hamda soha mutaxassislari uchun mo'jallangan bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlariga oid tendensiyalar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga bag'ishlangan hamda soha taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ilmiy tahlil va takliflardan iborat maqolalar e'lon qilinadi. Jurnal ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ommabop nashr hisoblanib, A4 formatda yiliga 6 (olti) marta o'zbek (kirill yoki lotin alifbosida), rus va ingliz tillarida mamlakatimiz va xorijiy tadqiqotchilarga ilmiy izlanishlarni olib borish uchun mo'ljallangan davriy elektron nashr sifatida e'lon etiladi.

Jurnalda maqolalarni e'lon etish uchun maqolalarni elektron shaklda, maqolani MS Word (.docx) formatida muallifning shaxsiy elektron pochtasidan info@eyib.uz manziliga yoki bo'lmasa telegram orqali

@mpk_journal manziliga yuborish mumkin.

Tel: +99893 5820303



"Moliya, pul va kredit" jurnali 2024-yilning 20-avgust sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669617 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Guvohnoma raqami: 362583



+998 93 582 03 03



<https://mpkjournal.com>



@mpk_journal